

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Raxmonova Sojida Muxammadovna,
Buxoro davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi

Qodirova Nafisa Mayjudovna,
Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti magistranti
<https://orcid.org/0009-0004-7184-1242>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.040>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri, maqsadli va izchil tashkil etish, ta'lim berishning zamonaviy samarali usullarini yaratish va amaliyotda o'rinli qo'llash, ta'limiy jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda zamonaviy innovatsion pedagogik muhitni shakllantirish, ta'limiy jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuv mexanizmlari tatbiq etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bola shaxsini hayotga har tomonlama tayyorlashda, unda hayotiy muhim qonun qoidalarni, hayotiy masalalarni o'nganish, yechimlar topa olishda zarur hisoblangan, zarur insoniy, milliy qadriyatlarini o'zlashtirib borishi, atrof-muhitdagi munosabat, tengdoshlariga, insonlarga o'zaro ijobiy munosabat qilishi hamda eng muhimi bolada "Men" obrazini shakllantirish hamda tayanch va soha kompetensiyalari va ularni rivojlantirish usullari, kreativlikni yanada takomillashtirish metod va texnologiyalari, kompetentlik - ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlarni tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobatbardosh tomonlar bilan o'zaro munosabatda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya, kreativlik, ta'lim, tarbiya, texnologiya, metod, usul, komponent, salohiyat, imkoniyat, yetuklik, rivojlanish, intellektual salohiyat, takomillashuv, ijodiy qobiliyat, dunyoqarash.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ И РОДСТВА

Рахмонова Сожида Мухаммадовна,
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

Кадирова Нафиса Мавжудовна,
Аспирант Новоинновационного Туркестанского университета

Аннотация: В данной статье рассматривается правильная, целенаправленная и последовательная организация воспитательного процесса в дошкольных образовательных организациях, использование современных и эффективных методов обучения и их соответствующее применение на практике, компетентность воспитательного процесса, инновационная педагогическая среда, реализация образовательных процедур и механизмов компетентности и интеграции, всесторонняя адаптация личности ребенка к жизни на основе компетентности и интеграции, в которой он усваивает важные законы и правила, жизненно важные вопросы и считается необходимым для поиска решений необходимо усвоение человеческих, национальных ценностей, отношения к окружающей среде, положительного отношения к сверстникам, людям, а главное, формирование у ребенка образа «Я», а также базовых и профессиональных компетенций и методов их реализации. разработка, методы и технологии дальнейшего совершенствования творческих способностей, компетентности - обучение умению понимать различные ситуации, возникающие в процессе, неожиданные ситуации, уметь справляться с ними во взаимодействии с конкурирующими сторонами, уметь использовать имеющиеся проблемы в неопределенных задачах, основанных на противоречивых целях, последовательно развиваться, говорить, иметь план движения в идущих и сложных шагах.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, творчество, образование, воспитание, технология, метод, метод, компонент, потенциал, возможность, зрелость, развитие, интеллектуальный потенциал, совершенствование, творческие способности, мировоззрение.

EFFECTIVENESS OF ORGANIZING EDUCATIONAL PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF COMPETENCE AND KINSHIP

*Rakhmonova Sojida Mukhammadovna,
Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Kadyrova Nafisa Mazhovtovna,
Graduate student of New Innovation University of Turkestan*

Abstract: In this article, the correct, purposeful and consistent organization of educational processes in preschool educational organizations, the use of modern and effective methods of teaching and their appropriate application in practice, the competence of educational processes. based on the formation of a modern innovative pedagogical environment, the implementation of educational procedures and the mechanisms of competence and integration, the comprehensive adaptation of the child's personality to life on the basis of competence and integration, in which he learns important laws and regulations, vital issues, and is considered necessary for finding solutions, necessary human, national assimilation of values, attitude in the environment, positive attitude towards peers, people, and most importantly, forming the image of «I» in the child, as well as basic and field competencies and methods of their development, methods and technologies for further improvement of creativity, competence - training to have the ability to understand the various situations that occur in the process, unexpected situations, to be able to deal with them in the interaction with competitive parties, to be able to use the existing problems in uncertain tasks based on conflicting goals, to develop consistently it is said to have a plan of movement in going and complicated steps.

Key words: competence, competence, creativity, education, education, technology, method, method, component, potential, opportunity, maturity, development, intellectual potential, improvement, creative ability, worldview.

Bugungi kunda ta'lim sohasining shiddat bilan rivojlanayotgan hamda integratsiya jarayonlari chuqurlashayotgan sharoitida ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar, mazkur jarayonlarda bola shaxsini har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ularni sog'lom g'oyali, mustaqil fikrli, salohiyatli, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega hamda ta'limiy jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda olib borish mexanizmlari tatbiq etilmoqda. Tabiiyki, har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi, hamda ta'lim tizimining raqobatbardoshligi ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Va bu borada shaxsning kamoloti, ta'lim-tarbiyasi, uning kreativligi, kompetensiyalari ta'lim jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq va bu sohaning samarali tashkil etish maqsadida har bir jamiyat o'zining zamonaviy pedagogik texnologiyalarini, metodlarini yo'lga qo'ygan. Ta'lim sohasidagi tahlillar natijasiga ko'ra ayni paytda dunyo mamlakatlarida ta'lim sohasini integratsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni faoliyatda joriy etish shuningdek, ta'limiy faoliyatlarda kompetensiyaviy yondashuv, kreativlikni yanada rivojlantirish o'sib kelayotgan yosh avlodni mehnat bozorida raqobatbardoshligi garovidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri, maqsadli va izchil tashkil etish, ta'lim berishning zamonaviy samarali usullarini yaratish va amaliyotda o'rinli qo'llash, ta'limiy jarayonlarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda zamonaviy innovatsion pedagogik muhitni shakllantirish hamda kelajak avlodlarga sog'lom yetkazish yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqod ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mukammallashib borishi, maktabgacha yoshdagi bolalarni yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayonlari va samarali ta'lim yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni didaktik imkoniyatli, sog'lom muhitda ta'lim olishlarini ta'minlash hamda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, zamonaviylikni, mustaqillikni, sog'lom, erkin fikrli etib tarbiyalash

borasidagi ilmiy izlanishlar alohida urg'u berilyapti.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarni integrativ tashkil etish, o'quv jarayoniga sifatli va maqsadli ta'lim va tarbiya berish hamda bu jarayonlarda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlarini ochib berish hamda rivojlantirishda ularni maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi. Tabiiyki, bugungi kunning kelajak avlodini sog'lom va har tomonlama barkamol, salohiyatli, mustahkam immunitetli etib kamolga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga aniq, maqsadli va samarali ta'lim shakllari hamda metodlarini, texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali faoliyatini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı amaliy ishlar olib borilmoqda.

Maktabgacha yosh davr - bu bolalikning eng muhim hamda uning shaxs sifatida kamol topishi, shakllanishi va rivojlanishining qisqa, biroq eng muhim davri sanaladi. Bolalarni har jihatdan intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, qobiliyatli, aqlan va jismonan sog'lom etib tarbiyalovchi, maktab ta'limiga puxta tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi hisoblanib, bolaning ilk yoshidan 7 yoshgacha bo'lgan davrigacha uning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni sanaladi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'limiy jarayonlarida bolaning keng imkoniyatlarni ochib berishi natijasida inson hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizi aynan maktabgacha yosh davrda olinishi isbotlangan. Shu bois, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ilk, ajralmas, eng muhim bo'lagiga aylangan. Uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh etish, yanada rivojlantirish asnosida kreativ, intellektual shaxs obrazi shakllantirilmoqda, ta'limdagi eng so'ngi zamonaviy xizmatlarni joriy etilmoqda.

Ta'limiy jarayonlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta'limni yanada takomillashtirish, pedagogik foliyatni jonlantirish, zamonaviy pedagogik texnikalar bilan qurollantirish, bolalarning maktabgacha ta'limdan sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kompetensiyaviy yondashuv kamol topib kelayotgan bola shaxsini hayotga har tomonlama tayyorlashda, unda hayotiy muhim qonun qoidalarni, hayotiy masalalarni o'nganish, echimlar topa olishda zarur hisoblangan, zarur insoniy, milliy qadriyatlarni o'zlashtirib borishi, atrof-muhitdagi munosabat, tengdoshlariga, insonlarga o'zaro ijobiy munosabat qilishi hamda eng muhimi bolada "Men" obrazini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini takomillashtirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bola uchun tayanch kompetensiyalar uning individual shaxs sifatida gavdalanishida ko'makchi sanaladi.

Harakatchanlik va faollik bolaga xos xususiyat bo'lib, har bir jarayonlarda bola o'zini namoyon etib boradi. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi hamda tizimli rivojlanib boradi. Ulardan asosiylari: bolaning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatda bo'lish faoliyati, borliqdagi bilish faoliyati, buyumlar bilan bo'ladigan o'zaro faoliyati, maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati, mehnat faoliyati hamda o'quv faoliyatlarini tashkil etadi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tayanch va soha kompetensiyalari – ularning bilim, ko'nikma, tanqidiy fikrlash, mustaqil faoliyat tajribasi va intellektlilik, shaxsiy mas'uliyatning universal yaxlit tizimini shakllantiradi. kompetensiyalar bolalar uchun kelajak qiyofasi, dunyoni badiiy his etish, dunyoqarashlar hamda o'zlashtirish yo'riqnomasi ham deb hisoblasak bo'ladi.

Kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. Kompetensiya tushunchasi lotincha "competentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, izohli lug'atda esa, "qonunan ega", "haqdor" degan ma'noni bildiradi, aksariyat ta'limda ya'ni umumiy iste'molda keng ishlatiladigan "qobiliyat", "ko'nikma," "iqtidor" tushunchalariga o'zaro yaqin turadi. Kompetentlik faoliyatda olingan bilimlardan maqsadli, samarali foydalanish, yuqori darajadagi malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishdir. "Kompetentlik" tushunchasi, ta'lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, ta'limda zamonaviy, innovatsion atama sifatida qo'llanib kelingan.

“Kompetentlik” – tushunchasi zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelmoqda. “Competentia” lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilidagi tarjima qilinganda uning lug‘aviy ma‘nosi “yaxshi biladigan inson”, “tajribaga ega bo‘lgan kishi” kabi ma‘nolarni anglatadi. Shu sababli kompetentlik ta‘lim jarayonida sodir bo‘ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlarni tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, raqobatbardosh tomonlar bilan o‘zaro munosabatda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to‘la maqsadlar asosida qo‘llay olish, izchik rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega ekanlikni anglatadi. Bu nazariy jihatdan kompetentlik tushunchasining umumiy mazmunini ochib beradi. Shuning uchun biz maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalar kompetensiyalari qanday mazmun kasb etishi, bularning ahamiyati yuqori ekanligini guvohi bo‘lamiz.

Bolalarning har tomonlama rivojlanib borishini u egallashi zarur bo‘lgan bilimi, ko‘nikmasi hamda malakalar bilan belgilanadi. Alohida e‘tirof etish joizki, tayanch kompetensiyalar faoliyatda bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarning umumiy tayanch kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

Kommunikativ kompetensiya – maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zaro muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda samarali foydalana olish ko‘nikmasi. Bunda bola turli vaziyatlarda o‘zining mustqilligini, faolligini namoyon etgan holda ijtimoiy muloqotga kirisha olishidir. Atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi, muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatidir. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanishi ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta‘lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o‘zlarini namoyon etishlari mumkin. Bolalar kattalar tomonidan berilgan topshiriqlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar, savollar va muammoli vaziyatlarni eshitadilar va shunga mos javob berishga harakat qiladilar. Ular tomonidan o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarga ijobiy, katta qiziqish bilan qarshi olinadi.

Bolalar nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo‘lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi hamda ta‘lim olishi va rivojlanishida fodalalanish uchun kerakli ma‘lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Men kompetensiyasi - Shaxsiy kompetensiya («Men» konsepsiyasini yaratish). Bolada men kompetensiyani yanada rivojlantirish, taraqqiy ettirish orqali bola maktabgacha yosh davrida shakllanadigan va butun hayoti davomida unga asqotadigan, takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolada o‘zi uchun g‘amxo‘rlik qilish, mas‘uliyatni zimmasiga olish, his qilish, qobiliyatini hamda o‘zining hayotini idoralash va bardavom sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ular hayotdagi o‘z o‘rnini bila boshlaydilar, o‘zlari va boshqalarning farovonligi haqida g‘amxo‘rlik, mehribonlik qilishga o‘rganadilar. Eng muhimi bola mustaqil bo‘ladi va o‘ziga ishonadi. O‘zidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini ko‘ra oladi va bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o‘zi boshqalar bilan solishtiradi va boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi.

Bola o‘z fikrlari, g‘oyalarini ilgari sura boshlaydi, va boshqalarga targ‘ib qila oladi, qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z ishining natijasini anglaydi. Bola o‘zi uchun tanlov qilishni biladi, o‘z oldiga vazifalar qo‘yadi. O‘zining yaxshi ko‘rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashadi. O‘zining barcha ehtiyojlarini qondiradi va buni kattalarga ham bildiradi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan hayotiy tartib va odob-ahloq qoidalariga

rioya qilgan holda kattalar va tengdoshlari bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar atrofdagilarni hurmat qilishni va ularning fikrlarini inobatga olishni o'rganadilar. Bolalar bilan mashg'ulot jarayonlaridagi faoliyatlarda zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Eng asosiysi ular o'z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Bolalar boshqalar bilan uyg'unlikda yashashlari mumkin. Ular turli xil insonlar bilan muloqot qilishga o'rganishadi, shuningdek, atrofdagilarning xilma-xilligini xarakterda ekanliklarini tan oladilar, ularga o'zaro munosib javob qaytaradilar, yordam beradilar va qo'llab-quvvatlay oladilar.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan hayotiy faoliyatda, o'quv faoliyatlarida, amaliy vaziyatlarni bajarish uchun foydalanishdir. Bolalar atrofolamdagi o'zlari uchun yangi obyektlarni o'rganadilar hamda kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. O'zlarining kashfiyotlaridan faxrlanadilar, asta-sekin mustaqil bo'la boshlaydilar, o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan, natijalarni angelaydigan ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishni yaxshi ko'radilar va ularni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlaydi, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish, atrofdagilar bilan muloqot qila olish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq taraqqiyotni ko'zda tutadi. Tayanch kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Faollik bolaga xos xususiyat bo'lib, tarbiya jarayonida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Masalan: atrofdagilar bilan muloqot faoliyati, bilish faoliyati, predmetli faoliyat, o'yin faoliyati, mehnat faoliyati, va o'quv faoliyatlaridir.

Tayanch kompetensiyalardan tashqari sohalar kompetensiyalari ham mavjud.

Bolaning rivojlanish sohalar kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonlarining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari: Bola o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi, turli harakatlarning faolligiga uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi, o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi, shaxsiy gigiyena malakalarini qo'llaydi, sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanish asoslarini biladi, xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari: Bola o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi o'rni to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi, o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi, o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi, kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi, murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari: Bola nutqni eshitadi va tushunadi, o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va gapning turli shakllari hamda qurilmalardan foydalanadi, ikkinchi tilni o'zlashtirish bo'yicha tayanch bilimlarga ega bo'ladi, ikkinchi tilni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishi uyg'onadi, badiiy asalarga qiziqish bildiradi, so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi, gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so'zlab bera oladi, yozishning dastlabki malakalari

va vositalaridan foydalanishni biladi.

“Bilish jarayonlarining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari: Bola bilim olishga kata qiziqish bildiradi, o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi, buyum, voqea-hodisa va holatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok etadi, raqamlar, hisob-kitobni biladi ularni hayotga qo‘llaydi, makon va holat, vaqtga mos ravishda ish tutadi, matematik oddiy hisoblashni amalga oshiradi, atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va holatlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi, atrof-muhitni asrab-avaylash va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish munosabatini namoyon etadi.

“Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari: Bola san‘at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi, milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi, san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi, olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalar tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi, insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik o‘rnini tushunadi.

Pedagog tomonidan kompetensiyaviy yondashuv asosida tanlab olingan o‘qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, ta‘limiy masalalarni ijodiy hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma‘suliyatni o‘rgatadi. Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo‘lishi ifodalanadi:

muloqot tashabbusini boshlash;

birinchi yaqinlik;

biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;

musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;

sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);

guruhda bolalarning tutgan o‘rni bo‘yicha farqlanishi paydo bo‘ladi.

Bu jarayonlar va xulq-atvorlar bolalarda rivojlantiruvchi faollik markazlarida olib boriladigan ta‘limiy jarayonda bolaning umumiy tayanch kompetensiyalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bolalarning bir-biridan ajralib turadigan bilim va ko‘nikmalarni egallashini emas, balki ularni kompleks holda o‘zlashtirishini nazarda tutadi. Shuning uchun ta‘lim berish usullari, metodlari tizimi turlicha ta‘riflanadi. Ta‘lim metodlarini tanlash va loyihalash tegishli kompetensiyalarning tuzilishi va ta‘limda bajaradigan funksiyalariga asoslanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta‘limiy faoliyatlarning barcha sohalarida va barcha aniq vaziyatlarda, ayniqsa, shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda, yangi faoliyat sohalarida va yangi vaziyatlar paydo bo‘ladigan muammolarni samarali hal qilish uchun bolaga yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malaka bera oladi. Maktabgacha ta‘lim - maktabgacha yoshdagi bolalarning ta‘lim-tarbiya jarayonida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining “tarbiyachi-tarbiyalanuvchi”, “tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi” darajasidagi o‘zaro ijobiy munosabatlarni tashkil etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Turg‘unboyev, M. Tolipov, I. Oxunov “Ijtimoiy pedagogika asoslari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya” 2008 y.
2. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, N. Kayumova, M. A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. -T., “Ma‘naviyat”. 2019 y. - 688 b
3. N.M. Qayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y. -183
4. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011y. -128 bet.
5. N.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet
6. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
7. Raxmonova S.M. “Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity”. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
8. Raxmonova S.M. “In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching”. Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
9. Raxmonova S.M. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.
10. Eshova D.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati (Monografiya) Buxoro. 2022y.-101b.
11. Eshova D.Sh. Развитие творческих способностей детей дошкольного возраста средствами театрального искусства